



PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA TALABALARING HUQUQIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi huquq ta'lifi magistri
Urayimova Shohsanamxon
qochqorovashohsanamxon@gmail.com*

Annontatsiya: Ushbu maqolada pedadogik oliy ta'lim muassasalarda huquqiy bilimlarni rivojlanotgan texnika va tehnologiyalar asrida zamonaviy usullarni qo'llagan holda dars o'tish samaraliroq usuldir. Ularning asosiyalaridan biri turli hildagi metodlar va texnologiyalardir. Shu holatda dars o'tish ham qiziqarli ham samarali natija beradi. Keyingi o'rinnlarda hozir hammani kundalik ehtiyojlarini qondirib uzog'ini yaqin qilayotgan telefonlar hisoblanadi. Manashu telefonlar orqali darsni yaxshi o'zlashtirish uchun foydalanish yo'llaridan biri bu turli o'yinlar orqali yoki bo'lmasa online tezkor test yechish yo'li bilan huquqiy bilimlarni oshirish lozim. Mening asosiy bu boradagi g'oyam shuki darsni yaxshin tashkil qilishda telefonimizda maxsus shu huquq faniga oid o'yin yaratib shu o'yin orqali qiziqarli holda talabalarni huquqiy bilimlarini rivojlanotgan lozim.

Kalit so'zlar: "Aqliy hujum" texnologiyasi, "Blits so'rov" texnologiyasi, "Baxslashuv" texnologiyasi, "Bumerang" texnologiyasi, "Klaster" texnologiyasi, "Semenar musobaqa" texnologiyasi "Tanishuv" texnologiyasi, "Zinama-zina" texnologiyasi, "Charxpalak" texnologiyasi, "Klaster" texnologiyasi, "Labirint" texnologiyasi, "Muloqot" texnologiyasi, "Muammo" texnologiyasi.

Kirish. Hozirgi texnika va texnologiyalar asri deymizmi bir so'z bilan aytganda rivojlanish jadal suratlar bilan borayotgan zamonda texnika va texnologiyadan holi bo'lgan rivojlanishni tasavvur qilish qiyin albatta. Ayniqsa bu kelajak



poydevori bo'lgan yoshlar haqida gap ketganda. O'zbekiston Respublikasida ham talabalarga huquqiy bilimni berish va ularda bu bo'yicha ko'nikma shakllantirish uchun juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda ayniqsa huquq sohasini rivojlantirish fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri bo'lgani uchun ham bu kun tartibidagi asosiy masalaga aylanib ulgurdi. Huquqiy bilimlarni rivojlantirishda inovatsiyon yo'llarni ishlab chiqish juda muhum masala biz hayotimizni ijtimoiy tarmoqlarsiz ta'savvur eta olmaymiz shu boisdan har doim biz bilan bo'lgan telefon va noutbooklardan endi talabalarning huquqiy faolligini oshirishda foydalanishimiz lozim. Hozirda ahborotlar juda ko'p va bilimlarning chek chegarasi yo'q o'rganganing sari ularning ichiga yanayam chuqurroq kirib boraverasan inson shu boisdan oddiy matnlarni o'qish va shu orqali talabalarni huquqiy bilimlarini oshirishga erishish va huquqiy faol shaxsga aylantirish eski ta'lim shaklidir to'g'ri bu degani butunlay tark etish kerak degani emas, bu degani yangi g'oyalar orqali yanada samaraliroq usullarini topish kerak degani.

Respublikamizda yosh avlodni har tomonlama barkamol va yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazishda ta'lim tizimining o'rni nihoyatda katta deb o'ylayman. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "... biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur."¹ degan ushbu murojaati mazmunida ham oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarni nafaqat o'z sohasining mutaxassisi, balki har tomonlama yetuk kadr sifatida kamol toptirishni ta'kidlaganlar. Bu esa o'z navbatida pedagoglar oldida turgan eng muhim va dolzarb masaladir. So'nggi yillarda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo'lidan borayotgan O'zbekistonda huquqiy ong hamda huquqiy komponentni rivojlantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy komponent darajasi mamlakatning rivojlanishi va

¹ Zarifa Mamajonovaning "Talabalarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida" maqolasidan



istiqbolini belgilab beradi. Huquqiy davlat sharoitidagi kasbiy faoliyatga fuqarolar huquqlari va erkinliklarini bilish va unga rioya qilish, fuqarolik jamiyatni manfaatlarida axloqiy va huquqiy, joiz bo'lgan va nojoiz bo'lgan xulqlarni bilish nihoyatda muhim masala deb o'layman.

Inson o'z huquq va erkinliklarini bilgani va unga rioya etgani uning hayoti yaxshilanishiga va atrofdagilar bilan to'g'ri munosabat o'rнata olishiga yordam beradi. Davlatda huquqiy nigelizim sharoitida esa buni sira ham imkon yo'q.

Har bir davlat ya'ni o'z oldiga fuqarolik jamiyatini qurishni niyyat qilgan har qaysi davlat huquqiy bilim va ko'nikmalarini oshirishni o'z oldiga birinchi darajali maqsad qilib qo'yadi. Shu bois ham turli usul va metodlardan foydalanibmi va darslarni yangi yangi usullarini o'rgangan va bizning halqning an'analaridan chiqib ketmagan holda horijiy tajribalarni ham qo'shgan holda ta'lim tizimini tashkil qilsak bu albatta o'z samarasini beradi deb o'layman.

Asosiy qisim.

XXI asrda nihoyatda yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar vujudga kelayotganligi va ularning murakkablashuvi natijasida hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalarida ilgari surilgan dolzarb vazifalarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Oliy Majlisga 2018 yil 28 dekabrdagi murojaatnomasida "Oliy ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini yuqori bosqichga ko'tarish zarur²"ligi muxim yo`nalishlardan biri sifatida belgilandi.

Oliy ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish, uni yuqori darajada mustahkamlash va tegishli chora tadbirlarni amalga oshirish bilan bir qatorda jamiyatimizning har bir a`zosidan innovatsion yondashuvni, ilmiy ishlamalar, zamonaviy texnologiyalar yaratishni talab etadi. Muhtaram prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsion muxitni yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo`lmas ekan, hech qaysi sohada raqobat, rivojlanish

² Prezident Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi murojaatnomasidan.



bo`lmaydi. Bu sohadagi o`zgarishlarni xalqimizga keng targ`ib qilmasak, odamlarda ko`nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan texnikaning mislisiz yutuqlari bilan hamqadam bo`lolmaymiz.³” Oliy ta`limni boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiya bugungi kunda eng ko`p qo`llanadigan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Bu esa O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga asosan Oliy ta`limni rivojlantirish ularning maqsad hamda vazifalarini bir-biriga yaqilashtirib ularni birlashtirmoqda. Oliy ta`limni boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar barkamol avlodni tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, yetilgan masala va muamolarni o`z vaqtida va ijodiy hal etish barcha o`quv yurtlarining ish samaradorligini hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirilishini ta`minlashi zarur.

Hozirgi davrda sodir bo`layotgan innovatsion jarayonlarda ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotlarni o`zlashtirgan, bu axborotlatni o`zлari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Bu borada Oliy ta`limini innovatsion texnologiyalarning boshqarish jarayonidagi o`rni va ahamiyati beqiyosdir.

Innovatsiya (inglizcha-innovation) yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogic jarayon hamda o`qituvchi va talaba o`rtasidagi ijodiy faoliyatiga yangilik, o`zgartirishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi, chunki ta`limda boshqaruvchilik rolini o`qituvchi bajaradi. Interfaol usullarga “Semenar musobaqa” texnologiyasi “Tanishuv” texnologiyasi, “Zinama-zina” texnologiyasi, “Aqliy hujum” texnologiyasi, “Charxpalak” texnologiyasi, “Klaster” texnologiyasi, “Bumerang” texnologiyasi, “3x4” texnologiyasi, “Rezyume” texnologiyasi, “Muammo” texnologiyasi, “Labirint” texnologiyasi, “Blits so`rov” texnologiyasi, “FSMU” texnologiyasi, “Skorabey” texnologiyasi, “Yelpig`ich” texnologiyasi, “Muloqot” texnologiyasi, “Baxslashuv” texnologiyasi, “Stenariy” texnologiyasi va boshqalar kiraditsak bo`ladi.

³ A.E Parmanov, Z.A. Shodmonqulov

“Zamonaviy innovatsion texnologiya orqali ta`limni boshqarishning ahamiyati” maqolasidan.



Manashunday aqlni sharxlovchi interfaol metodlar orqali talabalarga bilim berilganda uning samarasi ham, o'quvchini darsga bo'lgan qiziqishi ham o'sib boraveradi va biz o'z maqsadimizga erishamiz. Shunde metodlar orqali talabaga bilim bermasak zerikarli dars o'tish usullari tobora o'z samarasini yo'qotib bormoqda. Ilmiy darajamizni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shishimiz lozim zero hozirgi zamonda chetdan bilim sotib olishimiz keyinchalik o'zimizga zarar keltirishi tabbiy albatta. Anashu bilimga o'zimiz erishsek bizning iqtisodiyotimiz eng rivojlangan davlatlar qatorida bo'lishi aniq bo'lib bormoqda.

Bu metodlar qanday samara beradi? degan savol tug'iladi. Sinf honasida atigi bitta o'qituvchi bor talabalar soni esa 25 tadan 30 tagacha bazan undan ham ko'p shunda oqituvchi faqat nutq so'zlash ya'ni leksiya o'qish orqali ularning hammasiga bilimlarni yetkaza olmaydi endi u yanada samaraliroq usullarini qo'llash kerak bo'ladi. Birgina aqliy hujum metodini ko'rib chiqamiz uning mazmuni shuki "Aqliy hujum" biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr-mulohazalarni to'plab, ular orqali natijada ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz varaqcha (kartochka)lariga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Ta'lim oluvchilarda o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalalar shakllanishiga olib keladi. "Aqliy hujum" metodining o'tkazilish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilar e'tiboriga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlari so'raladi.
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari to'planadi.
4. Fikr-g'oyalalar ma'lum belgilari bo'yicha guruhanadi.



5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi⁴.

"Aqliy hujum" metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi, ya'ni:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzusiga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda, yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda, mavzudan so'ng darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilgan didaktik maqsadlarni amalga oshirish bo'lg'usi professor o'qituvchilarni tayyorlash, xususan ularning metodik tayyorgarligiga zamin yaratadigan fanlarning o'qitish metodikasi kurslarini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. "Ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning samarali yo'llarini yoritish va tegishli metodik tavsiyalarni ishlab chiqish professor-o'qituvchilar oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblaniladi, shu bilan birga innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishi bilan birga ta'lim mazmunini sifat jihatidan to'ldiradi, bo'lajak o'qituvchining metodik tayyorgarligini shakllantirishda va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini orttirish barobarida ularning metodik tayyorgarligini zamon talablari darajasida tashkil etishga imkon yaratadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash nafaqat talaba yoki professor-o'qituvchi uchun, balki boshqaruvda ham o'z ijobjiy ta'siri ko'rsatadi."⁵ Masalan, talabani mustaqil ishlashga va izlanishga undaydi, tashabbuskorligini ro'yobga chiqaradi o'qituvchini o'z ustida uzlucksiz ishlashini ta'minlaydi, faoliyatini yangilanishiga olib keladi; boshqaruvda esa

⁴T. Madumarov, M. Kamoldinov Inovatsion pedagogik texnalogiya asoslari va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash.

⁵ Omomboyeva Meruyert Erkinovna

"Ta'limi jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish metodikasi" maqolasasidan



ta’lim tizimi boshqaruvi osonlashadi, innovatsion menejment va sifatni ta’minlaydi. Innovatsion pedagogik ta’lim jarayonining muhim jihatni shaxsning o’z-o’zini boshqarishi va o’zini-o’zini safarbar qila olishi, shu bilan birga talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish hisoblaniladi.

Bu metodlarni amalda qo’llash uchun asosan birinchi o’rinda pedagogic mahurat ham ro’l o’ynaydi bu nima degani pedagogic mahorat manashunday metodlarni amalda qo’llay olish ko’nikmasi hisoblanadi. Pedagogik mahorat bir so’z bilan aytganda “O’z kasbining mohir ustasi bo’lgan, yuksak darajada madaniyatli, o’z fanini chuqr biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o’qitish usullarini mukammal egallagan mutaxassis”⁶. Manashunday tajribaga ega bo’lgan pedagog bunday texnalogiyalarni ham metodlarni ham o’z o’rnida qo’llay oladi. Metodlardan tashqari hozirgi zamonda kundalik ehtiyojlarimiz uchun ishlatilayotgan telefonlarimiz orqali ham huquqiy bilimlarni berib borishda foydalansak bo’ladi bunda albatta yosh chegarasi juda muhim rol o’ynaydi. Qanday qilib telefonlar orqali bilim berishni tashkil etish mumkin? Bunda ular qiziqqan musiqa va ular hohishiga ko’ra o’yin turlari tanlab olinadi, tanlangan o’yin turiga moslashtirgan holda turli variant shaklida ta’lim test ko’rinishida yani tanlov shaklida o’tilgan har bir mavzu o’yinning har bir bosqichiga terib chiqiladi to’g’ri bu murakkab va hamkorlik asosida bu ish bajarilishini ta’lab qiladi ammo bu yaxshi narija beradi deb o’ylayman bu holatga ovoz ham qo’shilsa faqat ko’rish ko’nikmasining o’zigma emas balki eshitish va gapirish ko’nikmasi ham shakllanadi albatta. Bundan tashqari honaning ko’rinishlarini ham tez tez o’zgartirib mavzuga moslashtirib tashkil etilsa talabalarda yanayam yaxshiroq shu mavzuga kirib ketishlikka yordam berishi tabiiy hol.

⁶ Abdullayeva B.S, Xoliqov A.A, Sodiqov H.M, Primov Sh.Q, Zarmasov Sh. R Umumiyy Pedagogika



Xulosa

Xulosa qilib aytganda oddiy an'anaviy usuldagagi dars o'tish metodidan ko'ra noan'anaviy holatda qiziqarli usullar bilan dars o'tishlik samaraliroq natija beradi. Ayniqsa hozirgi kunda ta'limni rivojlantirish mamlakatning keyingi kuni va kelajagiga bog'liq bo'lib turgan vaziyatda, turli hildagi usullar va amaliyotlar orqali ta'lim tivojlantirilganda amaliyotga chiqishi ham oson bo'ladi. Dars o'tishning zamonaviy yo'llari deganda faqatgina metodlarni tushunmaymiz biz zamonaviy usullar deganda texnologiyalardan foydalangan holda dars xonasini jihozlash va shaxsiy telefonlar orqali o'quvchini zeriktirmagan holatda yangi yangi dars tashkil qilishlik haqida o'z maqolamda qisqacha tushuncha va ko'nikmalar berib bordim.

Ta'lim sohasini rivojlantirish hozirgi holatda juda ham dolzarb masala ayniqsa ta'limni amaliyot bilan qo'shib olib borishlik kelajakda yaxshi kadrlar chiqishini kafili desak hech mubolag'a bo'lmaydi deb o'ylayman. Chunki faqat nazariya bilan shug'ullangan va bu tizimdan va uning amaliyoti bilan butkul begona bo'lgan kadrlar u yerda yaxshi ishchi bo'lishi uchun ma'lum bir vaqt kerak bo'ladi. Talabalarining qiziqishlarini oshirgan holda dars o'tish uchun turli hil texnologiyalardan foydalanish ham ta'lim sifatini oshirisha yordam beradi bunda birinchi o'rinda biror bir ashyoga yoki shaxs o'ziga talabalarining diqqatini jalb qilib olishi lozim bo'ladi. Men hozir bu maqolamda talabalarga qanday qilib ijtimoiy tarmoqlar bilan birgalikda ta'lim tizimini rivojlantirish lozimligi haqida ayib o'tgan edim. Men tajriba orqali ko'rib shu narsaga amin bo'dimki bu metod deymizmi texnalogiya deymizmi yosh holati juda ham muhim ekan. Shuning uchun bu o'yinlar orqali mutaxasislik fanlarini o'qitishlik asosan oliy ta'lim uchun to'g'ri kelar ekan. Maktab va litseylar uchun esa honani chiroyli holatda dars mazmuniga moslashtirgan holda jihozlash va electron doskalardan foydalanib dars o'tishlik samaraliroq natija berar ekan. Bu tajriba sifatida sinab ko'rilmaganidan so'ng berilayotgan hulosamdir. Yana shuni ham aytishim joizki ta'limga bolalarda muhabbat va qiziqishni uyg'otgan saring ularda kelajakga bo'lgan ishonch ham tobora ko'payib boraveradi. Va o'z o'zidan o'z ustida ishlashni boshlaydi qachonki o'z ustida ishlagan sari odam rivojlanib boraveradi bu esa jamiyat rivojlanishiga olib keladi.



Foydalaniman adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Toshkent. 2023
2. Mirziyoyev Sh. M Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: O'zbekiston. NMIU, 2017. 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent: O'zbekiston. NMIU, 2016, 56 bet
4. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O'zbekiston. 2017.-488 bet
5. A.E Parmanov, Z.A. Shodmonqulov
“Zamonaviy innovatsion texnologiya orqali ta'limni boshqarishning ahamiyati” maqolasidan.
6. Omonboyeva Meruyert Erkinovna
“Ta'lifi jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish metodikasi” maqolasidan.
7. Zarifa Mamajonovaning “Talabalarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida” maqolasidan.
8. Mukarramxon Botirova Umumiy pedagogika
9. N.N. Azizzo'jayeva Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat
10. M. Bozorova, B. Xodjayev Pedagogik texnologiyalar
11. T. Madumarov, M. Kamoldinov Inovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash.
12. Abdullayeva B.S, Xoliqov A.A, Sodiqov H.M, Primov Sh.Q, Zarmasov Sh. R Umumiy Pedagogika
13. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
-165 b